

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.M.Abdunazarov, M.H.Umarova	272
Surxondaryo viloyati o'simliklar olamining geografik tarqalishi.....	272
A.K.Ergashev	
Avstraliya materigi yer usti suvlari tarqalishining hududiy xususiyatlari (daryolar misolida).....	277
R.T.Pirnazarov, S.I.Usmonova	
O'zbekiston va unga tutash tog'li hududlardagi to'g'onli ko'llar, ularning tadqiq etilishi va ular bilan bog'liq muammolarning keskinlashuvi.....	282

ILMIY AXBOROT

D.I.Ibragimova	
Isajon Sultonning tarixiy hikoyalarida mavzu va g'oya	290
Sh.A.Yuldashev, S.Muhammadjonova	
Optoelektronikada qo'llash uchun optronlar yaratish	293
A.A.Ergashev	
Nota muharriri finale-2003 ning amaliyotda qo'llanishi	298
I.Rustamov	
Yangi O'zbekistonda yaratilayotgan doira darsliklari va ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli	302
M.Nasridinova	
Yangi O'zbekiston yoshlарining ma'naviy-axloqiy-estetik dunyoqarashini yuksaltirishda musiqa san'atining o'rni.....	306
M.V.Nasridinov	
Ingliz va o'zbek tillarida "Maqsad" konseptining morfologik sathlararo verbalizatorlari struktural-semantik turlari maydoni	310
G.O.Shaxbazova	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash tizimini modernizatsiyalashning ijtimoiy-pedagogik zarurati	315
N.N.Norxo'jayeva	
Oliy texnik ta'lim muassasalari talabalarining kreativ-grafik kompetentligini rivojlantirish komponentlari va kriteriyalarining pedagogik mazmuni.....	318
D.R.Ismoilova	
Ingliz va o'zbek tillaridagi "Jinoyat" semantik maydoni	322
D.B.Toshpo'latova	
Malakaviy amaliyot vositasida talabalarni amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlashga innovatsion yondashuv.....	326
M.Ф.Рахмоналиева	
Медиаобразование и медиакомпетентность в современном социокультурном контексте в преподавании английского языка для студентов технического института.....	332
M.F.Adasheva	
Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	336
U.Q.Maqsudov, M.O.Yuldasheva	
O'qish savodxonligining asosiy tushunchalari va bolalar rivojlanishidagi roli	340
M.A.Abdujalilova	
Brief theoretical and historical roots of lingo-culture science. Lingo-cultural brief analysis of household items lexemes	348
U.T.Isakov	
O'zbek musiqa madaniyatini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	351
U.U.Xolova	
Abu Ali Ibn Sino va tasavvuf	356
T.Q.Jabborxonov, F.Sh.G'apporov, A.F.Raxmataliyev, Z.O.Yusupov	
O'rta Osiyoda tarqalgan Inula L. Turkumiga mansub turlarning ekologik mintaqalarda tarqlash tahlillari	360
Y.Y.Turakulov	
Pedagoglar kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari.....	366



УО'К: 378.014.15

**BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH TIZIMINI
MODERNIZATSIYALASHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURATI**

**СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ
ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ**

**THE SOCIO-PEDAGOGICAL NECESSITY OF MODERNIZING THE SYSTEM OF TRAINING
FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS**

Shaxbazova Gulruh Orifjon qizi
Farg'onan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida sport estetikasiga doir bilimlarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, sport estetikasiga doir bilimlarni rivojlantirishning amaliy metodik tizimi, sport estetikasiga doir bilimlarni rivojlantirish samaradorligi tahlil qilingan bo'lib, uning bugungi kundagi zarurati hamda pedagogik dolzarbliligi atroficha yoritilgan.

Аннотация

В данной статье анализируются теоретико-методологические основы формирования знаний об эстетике спорта у будущих учителей физической культуры, практическая методическая система формирования знаний об эстетике спорта, эффективность формирования знаний об эстетике спорта, а также ее необходимость и педагогическая актуальность на сегодняшний день. раскрыто подробно.

Abstract

This article analyzes the theoretical-methodological foundations of the development of knowledge about sports aesthetics in future physical education teachers, the practical methodical system of developing knowledge about sports aesthetics, the effectiveness of developing knowledge about sports aesthetics, and its necessity and pedagogical relevance today are covered in detail.

Kalit so'zlar: pedagog, jismoniy tarbiya, sport estetikasi, sport, texnologiya, didaktik, modernizatsiya, integratsiya, klasterli yondashuv, fosilitatsion ta'lim, refleksiv, interfaol, trening, innovatsion, integratsion.

Ключевые слова: педагог, физическое воспитание, спортивная эстетика, спорт, технологии, дидактический, модернизация, интеграция, кластерный подход, фосилизирующее образование, рефлексивный, интерактивный, тренинг, инновационный, интегративный.

Key words: pedagogue, physical education, sports aesthetics, sport, technology, didactic, modernization, integration, cluster approach, fossilization education, reflexive, interactive, training, innovative, integrative.

KIRISH

Jahonda sport estetikasini rivojlantirish va shu asosida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari hamda mashg'ulotlardan tashqari jarayonda talabalarni sport estetikasi vositasida estetik tarbiyalash vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Shu ma'noda, sportdagi go'zallikni his etish unga bo'lgan qiziqishni mustahkamlaydi, sportdagi go'zallikni idrok etish esa uni yanada tushunarli va barqaror qiladi. Sport estetikasiga qiziqishni murakkab metodlar, original usullar, turli xil vositalar faollashtiradi. Bu estetik tarbiyaning eng samarali shakllaridan biri sanaladi. Shuning uchun ham jismoniy tarbiya va sport yo'nalishi bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarda sport estetikasiga doir bilimlarini rivojlantirish, sport estetikasinig tarbiyaviy ikmoniyatlarini o'qitishning metodik tizimini takomillashtirish zarurati ortib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida sport estetikasiga doir bilimlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslarini tadqiq etishning uch qismga O'zbekistonda, MDH mamlakatlarida va G'arb mamlakatlarida o'rganilishi sifatida tasniflash mumkin.

O'zbekistonlik olimlardan N.N.To'xtaboyev, A.N.Shopulatov, S.S.Tajibayev, F.Kerimov, A.Shopulatov, A.Muzaffarov, A.Mirzayev, A.Xudoyerovlar jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining kasbiy mahoratini rivojlantirish, sportchilarda ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish ishlarini samarali tashkil qilish masalalari o'rganilgan. Shuningdek, S.X.Fayzulina, S.K.Annamuratova, A.Hasanov, F.Jo'rayev, A.Vosiqov, A.Sulaymonov, K.Dosimov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlارida estetik tarbiya, sport estetikasining tarbiyaviy imkoniyatlari yoritilgan.

G'arb davlatlarida yoshlarni ommaviy sport sog'lomlashtirish jarayoniga yo'naltirish, bunda sport estetikasining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish va bu borada jismoniy tarbiya ta'lim imkoniyatlarini oshirish masalalari olimlardan B.Lou, H.Slyusher, F.Kinon, A.Vett, E.Zadarko, J.Yunger, Z.Barabas, D.Braun, A.Alpers tomonidan tadqiq etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Zamonaviy pedagogika bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularda yangicha dunyoqarash va tafakkurni tarbiyalash hamda jismoniy ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda ularning kasbiy kompetetligidan yuqori darajada foydalana olishda motivatsion yondashuvdan foydalanish, motivatsion favoliyatni yuzaga keltirish va shu asosda ijtimoiy o'zgarishlarga erishish maqsad qilmoqda.

Bugungi kunda jismoniy tarbiya o'qituvchilarining ish uslubini takomillashtirishda optimal-pedagogik usullar izlanmoqda. Ammo bu urinishlar quyidagi kamchiliklar tufayli natijasiz bo'lib qolmoqda: bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda mutaxassislik fanlari blokiga kiruvchi «Jismoniy tarbiya» darslari zamonaviy modifikatsiyalashtirilmayapti; pedagogik jarayon talabalarning ta'lim ehtiyojlarini qondirishga moslashtirilmagan; jismoniy tarbiya o'qituvchilari talabalarga zamonaviy bilim berishda jismoniy mashqlarni loyihalash texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlariga yetarlicha baho berishmayapti; talabalar ta'lim ehtiyojlarini shakllantirishga, uni qoniqtirish uchun sharoitlar yaratishga intilish yetarli darajada emas; talabalarga jismoniy yo'nalishdagi didaktik vaziyatli topshiriqlaridan foydalanish tartibli va muntazam ravishda olib borilmayapti; bu mazmundagi auditoriyadan tashqari jismoniy-madaniy-oqartuv ishlarining olib borilishi talab darajasida emas; talabalarga kelgusi mutaxassisliklari bo'yicha jismoniy madaniyat sohasiga oid loyihalash texnologiyasi ko'pincha, tasodifyi mashqlardan foydalanish evaziga amalga oshirilmoqda (ularning mazmuni shaklidan tashqarida qaraladi, o'zaro bog'liq holda ifodalanmaydi, shakli esa — mazmunidan alohida olib borilishi kuzatiladi); bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari - ertangi kun umumiyl o'rta ta'lim mifikatasi mazkur muammoning zamonaviy metodologik hamda nazariy asoslari bo'yicha tavsiyalarga ehtiyoj sezadilar [5].

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlash quyidagicha kechadi: mo'ljallangan yangilikni yalpi va uning alohida bosqichlari muvaffaqiyatini bashorat qilish; yangilikni boshqa innovatsiyalar bilan qiyoslash, ulardan samaradorini tanlab olish, ularning eng ahamiyatlari va aniqlik darajasini aniqlash; yangilikni tatbiq etishning muvaffaqiyatlilik darajasini tekshirish. O'qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi uch bosqichda amalga oshiriladi: yangilikni pedagogik faoliyatda qo'llashdan oldingi davrdagi o'qituvchi faoliyatini tahlil qilish; kasbiy faoliyatning faol shakllanish davrini tahlil qilish; pedagogik jarayonga yangilik kiritilib bo'lgandan keyingi davrdagi faoliyatni tahlil qilish [2].

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashdan maqsad - o'qituvchining yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o'z ustida ishslash ko'nikmasi va mala-kasini shakllantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish malakasini takomillashtirishdan iborat ekan unda jismoniy tarbiya o'qituvchisi kasbiy faoliyatda quyidagi qobiliyatlarini namoyon etishi lozim: -dars mashg'ulotlarida ijodiy motivatsiyani qo'llaydi, kasbiy faoliyatni baholaydi; - talabalarning ijodiy o'zaro faoliyatiga hamkorlik qiladi; - qat'iyatlik, mas'uliyatlik va halollik bilan ishini tashkil etadi; - kasbiy faoliyatga bo'lgan zaruratni aniqlaydi; - ijodiy faoliyatga jalb qilishga tayyorgarlik ko'radi; - shaxsiy maqsadlarni kasbiy faoliyat bilan moslashtiradi va boshqalar [4].

Shuningdek, bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlashda quyidagi funksiyalarini amalga oshirish nazarda tutiladi:

- milliy va umummilliy qadriyatlarga oid tushunchalarni jismoniy tarbiya darslari tarkibiga singdirish;

ILMIY AXBOROT

- bo'lajak kasbiy faoliyatga ongli yondashuv tahlili, meyorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;
- kasbiy yangiliklarga nisbatan ishtiyoqmandlik; ijodkorlikni shakllantirish;
- o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, sog'lom turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatida mujassam qilish;
- samarali va ahamiyatli meyorlarni belgilaydigan yangi texnologiyalarni topish;
- shaxsning o'z taqdirini o'zi belgilash va o'zini o'zi namoyon qila olishi asosida o'z rivojlanishini ta'minlash;
- ta'lim va tarbiyani uyg'un olib borish, yoshlarni nafaqat jismonan, balki, ma'naviy, ahloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazish bo'yicha ta'sirchan pedagogik choralarini belgilash;
- ta'lim muassasalarida sog'lom ijodiy muhitni yaratish, ta'lim va tarbiya jarayoniga ilg'or kasbiy, pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish orqali o'qitish sifatini yangi bosqichga ko'tarish;
- yoshlarning dunyoqarashi, tafakkuri, mustaqil mushohada qilish qobiliyatlarini rivojlanirish;
- yoshlarni diniy-ekstremistik g'oyalar, turli axborot hurujlari ta'siridan himoya qilish, ularda vatanparvarlik, yurtga sadoqat va uning taqdiriga daxldorlik tuyg'ularini tarbiyalash;
- mактабдан ташқари та'limning shakllari va mazmunini tubdan yangilash, hududlarning xususiyatlari, tahsil oluvchilarining qiziqishlari, xohish-istiklari asosida bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirish;
- pedagogika sohasidagi innovatsiyalar ko'lamin kengaytirish, pedagogik diagnostika, talaba shaxsiga individual yondashishga doir tadqiqotlarga keng yo'l ochish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash mexanizmini joriy etish;
- pedagogik (ta'lim, tarbiya) jarayonda talaba faoliyatini boshqarish uchun loyihalangan jismoniy tarbiya darslarining barkamol shaxs tarbiyasiga yo'naltirish tendensiyasining kuchaytirish [1].

XULOSA

Bugungi kunda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilariga motivatsion yondashuvalar va munosabatlar tizimini yaratishning ijtimoiy-pedagogik zarurati ortib bormoqda. Bu esa ularni o'qitish, kadr sifatida tayyorlash tizimini takomillashtirishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Shu ma'noda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini zamon talabalari asosida o'qitish, kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlanirish, ijodiy yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash ehtiyojini yuzaga keltirmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Махмудов, Б.А. Жисмоний тарбия ўқитувчиларини касбий фаолиятга тайёрлашнинг методологик асослари / Б. А. Махмудов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 52 (342). — С. 459-461. — URL: <https://moluch.ru/archive/342/76832/> (дата обращения: 13.06.2023).
2. Мишагин В.Н., Личностно-ориентированный подход к организации профессиональной подготовки будущего учителя физической культуры. Кан. пед. наук. Дисс. Автореф. Саратов, — 2001. — 190 с.
3. Педагогикадан атамалар луғати. — Тошкент: Фан, 2008. — 196 б.
4. Ўзбекистон миллый энциклопедияси. 4-жилд. Зебунисо-Конигил. — Тошкент: Ўзбекистон миллый энциклопедяси, 2002. — 704 б.
5. Холодов Ж.К., Кузнецов В. С. Теория и методика физического воспитания и спорта: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. — М., Академия, 2000. — 480 с.